MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY FAOLIYATIDA ILM VA MA’RIFAT G‘OYASI

Ergashov Zuhriddinjon Zavqiddinjonovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Xalqaro munosabat” 2-kurs talabasi
e-mail: ergashovzuxriddin078@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatida ilm va ma’rifat g‘oyalarining tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Behbudiyning jadidchilik harakatidagi faoliyati, xalqni savodxonlikka, zamonaviy ta’limga va milliy uyg‘onishga chorlovchi qarashlari yoritiladi. Shuningdek, uning pedagogik, publitsistik va adabiy merosi orqali yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada Behbudiy ijodining bugungi davrdagi ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatiga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, ilm, ma’rifat, ta’lim, milliy uyg‘onish, vatanparvarlik, ma’naviy meros.

ABSTRACT

This article analyzes the role of the ideas of knowledge and enlightenment in the activities of Mahmudhoja Behbudiy. It examines Behbudiy’s contribution to the Jadid movement and his views advocating public literacy, modern education, and national awakening. The article also highlights the significance of his pedagogical, journalistic, and literary heritage in educating the younger generation. Particular attention is paid to the spiritual and educational relevance of Behbudiy’s legacy in the present day.

Keywords: Mahmudhoja Behbudiy, Jadidism, knowledge, enlightenment, education, national awakening, patriotism, spiritual heritage.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль идей знания и просвещения в

деятельности Махмудходжи Бехбуди. Рассматриваются его вклад в джадидское движение, а также взгляды, направленные на повышение грамотности народа, развитие современного образования и национальное пробуждение. Кроме того, раскрывается значение его педагогического, публицистического и литературного наследия в воспитании молодого поколения. Особое внимание уделяется духовно-просветительскому значению творческого наследия Бехбуди в современных условиях.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, знания, просвещение, образование, национальное пробуждение, патриотизм, духовное наследие.

KIRISH

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy o‘zgarishlarga ehtiyoj kuchaygan davr edi. Ana shunday tarixiy sharoitda millatni jaholatdan chiqarish, uni ilm-fan va taraqqiyot sari yetaklash g‘oyasi jadidchilik harakatining asosiy yo‘nalishiga aylandi. Ushbu harakat vakillari orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy alohida o‘rin egallaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilda Samarqand viloyatining Baxshitepa qishlog‘ida Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li xonadonida tug‘ilgan. Otasi Ahmad Yassaviy avlodidan. Otasining buvasi, Niyozxo‘janing asli kelib chiqishi urganchlik bo‘lib, Samarqandga XVIII asr oxirida, amir Shohmurod hukmronlik davrida ko‘chib kelgan[1]. 1868-yilda rus askarlari Samarqandga bostirib kirgandan keyin otasi Behbudxo‘ja oilasini olib Baxshitepa qishlog‘iga ko‘chib o‘tgan va shu qishloqda imomlik qilgan. Behbudiyning onasi esa muftiy Odil Mansur o‘g‘lining singlisi bo‘lgan.

Behbudiy, dastlab an’anaviy maktabxonalarda ta’lim olgan, keyinchalik zamonaviy bilimlarga qiziqib, rus tilini va yangi fanlarni o‘rgangan. Behbudiylar oilasi

[1] D. Alimova, A. Rashidova. *Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri*. – Toshkent: Akademiya nashriyoti, 1999. – 7-bet.

ma’rifatparvar va ziyoli bo‘lgan. Ikki singlisi ham o‘qib, tahsil olgan. Qur’onni yaxshi bilgan. Katta singlisi Huriniso “qoribegim” unvoniga ega bo‘lgan. 1893-yilda onasi, 1894-yilda otasi vafot etgan[2].

ASOSIY QISM

Behbudiyning ijodi adabiyot, jurnalistika, ta’lim, siyosat kabi turli sohalarni

qamrab olgan. Xususan, Behbudiy turkiy xalqlar adabiyotida yangi davrni boshlab

bergan yozuvchilardan biri hisoblanadi. U asarlari orqali xalqni ma’rifatga, birlikka va ozodlikka chaqirgan.

Shuningdek, *“Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqru-zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidur. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo‘lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o‘qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo hukmfarmo bo‘lsa kerak. Bu ishlarni yo‘qbo‘lmog‘iga o‘qumoq va o‘qutmoqdan boshqa iloji yo‘qdir”*[3]. Ushbu fikrlar jadid ma’rifatparvarlarining xalq taqdiri, jamiyat taraqqiyoti va millat kelajagi haqidagi qarashlarini yaqqol ifodalaydi. Bu qarashlarda xalq boshiga tushgan og‘ir ahvolning asosiy sababi tarbiyasizlik va jaholat bilan bog‘lanadi. “Xonavayron”, “bevatan”, “asir”, “faqru-zarurat” kabi tushunchalar orqali jamiyatning murakkab ijtimoiy holati tasvirlanadi. Bularning barchasi ilmning yetishmasligi va tarbiyaning sustligi oqibati ekanligi ta’kidlanadi.

[2] Toshpo‘latov, S. (2025). *Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning Turkiston jadidchiligida tutgan o‘rni*. Modern Science and Research, 2(1), 464–466.

[3] Mahmudxo‘ja Behbudiy Madg‘oziyevO‘.filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori. – Toshkent: Zabarjad media 2025. 6-bet

Jadid ma’rifatparvari inson va jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili sifatida ilm alohida e’tirof etiladi. Taraqqiy etgan xalqlar ilm-fan, ma’rifat va tarbiya orqali yuksalgan bo‘lsa, ilmga e’tibor bermagan jamiyatlar qoloqlik va qaramlikka yuz tutgan. Shu bois yosh avlodni o‘qitish, ularga zamonaviy bilim va tarbiya berish masalasi muhim vazifa sifatida ko‘rsatiladi.

Behbudiy ma’rifatparvarlik g‘oyalari yetakchi o‘rin egallaydi. Jamiyat hayotini o‘zgartirishning asosiy yo‘li sifatida zo‘ravonlik emas, balki ta’lim va tarbiya ko‘rsatiladi. Ilm insonni jaholatdan qutqaruvchi, millatni esa taraqqiyot sari yetaklovchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jamiyatni ma’rifatli qilish va xalq ongini yuksaltirish maqsadida turli targ‘ibot vositalaridan foydalangan. U matbuot sohasini rivojlantirib, 1913-yilda “Samarqand” va “Oyna” kabi gazetalarni nashr ettirgan. Bu nashrlar orqali u jamiyatga zamonaviy bilimlar, ijtimoiy fikr va ma’rifiy g‘oyalarni yetkazishga intilgan.

Shuningdek, Behbudiy o‘z bilimini kengaytirish va ilg‘or tajribalarni o‘rganish maqsadida Kavkaz, Qrim, Istanbul, Yunoniston, Bolgariya, Avstriya, Berlin va Misr kabi hududlarga safar qilgan. Ushbu sayohatlar davomida u ko‘rgan ilg‘or tajribalarni Turkiston jamiyatiga tatbiq etishga harakat qilgan va ma’rifat orqali jamiyatni rivojlantirish g‘oyasini amalda targ‘ib etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy safarlari davomida matbuot va nashriyot ishlariga alohida e’tibor qaratgan. U turli mamlakatlardagi tahririyatlar faoliyati bilan tanishib, ijodiy jamoalar bilan muloqot qilgan. Bu jarayonlar uning “Oyna” jurnalida chop etilgan “Sayohat xotiralari”da aks etadi.

Mazkur jadid ma’rifatparvari o‘zbek dramaturgiyasining ilk rivojlantiruvchilaridan biri sifatida ham tan olinadi. Uning “Padarkush” asari orqali jamiyatga ilm-ma’rifatning ahamiyati, jaholatning esa millat taraqqiyotiga to‘sqinlik

qilishi g‘oyasi yetkazilgan. Shu maqsadda u teatr va sahna san’atini ham ma’rifat tarqatish vositasi sifatida qo‘llab-quvvatlagan.

Bu ma’rifatparvarlik yo‘lidagi faoliyatlar keyinchalik o‘sha davrdagi siyosiy tizim tomonidan ijobiy qabul qilinmagan. Chunki jamiyatning ilmli, ongli va erkin fikrlovchi bo‘lishi mustabid boshqaruv uchun ma’lum darajada xavf tug‘dirar edi. Bunday sharoitda ma’rifatning kengayishi xalqning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirishi mumkin edi. Shu sababli jadidlarning ilm va taraqqiyotga qaratilgan g‘oyalari turli bosim va qarshiliklarga uchragan.

Shuningdek, “27-noyabrga o‘tar kechasi “Turkiston muxtoriyati” e’lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo‘yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma’naviy otasi shubhasiz Behbudiy edi. “27-noyabr Qo‘qonda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon syezdida e’lon qilindi. Kamina ham majlisdaq bo‘lishdan iftixor etaman. Yashasin Turkiston muxtoriyati! – deb yozgan edi Behbudiy”[4]. Ammo Turkiston muxtoriyati uzoq yashamadi bor-yo‘g‘i 72 kungi faoliyat yuritdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining ma’rifiy va vatanparvarlik g‘oyalari bilan ajralib turib, og‘ir siyosiy sharoitlarga qaramasdan ham o‘z qarashlaridan voz kechmagan. U Vatan va millat taqdiri haqida chuqur mazmunga ega fikrlar bildirib, vatanparvarlikni yuksak ma’naviy qadriyat sifatida talqin qilgan. Uning vatan haqidagi qarashlari xalqni birlashtirish, milliy ongni kuchaytirish va ma’naviy mustahkamlikni oshirishga qaratilgan edi.

“Vatan – onamiz, vatan – jonimiz, vatansiz hayot – ruhsiz tan. Vatan uchun kurash, vatan uchun yashash, bu – har bir insonning burchi va shon-sharafi”- degan fikrlar ham Behbudiyning vatanparvar inson bo‘lganligidan, Vatanini sevganidan

[4] Mahmudxo‘ja Behbudiy Abdurashidov Z. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.– 22-bet

dalolatdir[5]. Ushbu fikrlarda vatan tushunchasi inson hayotining eng muhim qadriyati sifatida talqin qilinadi. Vatan onaga qiyoslanib, uning inson uchun qadr-qimmati beqiyos ekani ta'kidlanadi. Vatansiz hayot ruhsiz tanaga o'xshatilishi orqali esa insonning ma'naviy va ijtimoiy jihatdan Vatan bilan uzviy bog'liqligi ifodalanadi.

Shuningdek, Vatan uchun yashash va kurashish har bir insonning muqaddas burchi ekani g'oyasi ilgari suriladi. Bu fikrlar vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlashga, insonni o'z yurtiga sadoqatli bo'lishga undaydi. Shu jihatdan uning g'oyalari keyingi avlodlar uchun ham muhim ma'rifiy meros bo'lib qolgan.

Shunda, Behbudiy iztirob bilan mayning boshida Samarqandga qaytadi. U yerda tura olmay, Toshkentga keladi. Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokaralar natija bermaydi. Orzulari chil-chil bo'lgan Behbudiy 1919-yilning bahorida 25-martda Shahrisabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi.

Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiyni jismonan yo'q qilish orqali uning faoliyatini to'xtatishga urinishlar bo'lgan bo'lsa-da, uning g'oyaviy va ma'naviy merosini yo'qotish imkoni bo'lmagan. Uning ilm-ma'rifat, vatanparvarlik va jamiyatni isloh qilish haqidagi qarashlari o'z kuchini saqlab qolgan hamda keyingi avlodlarning tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu ma'noda, uning g'oyalari jismoniy hayotdan keyin ham ijtimoiy va ma'naviy jihatdan davom etib kelgan.

Bundan tashqari, 1916 yilda Turkiston general-gubernatori N.R.Kuropatkin o'z kundaligida shunday jumlalarni yozgan: "Biz tub joy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik"[6]. Turg'unlik, tutqunlik va senzura avj olgan bunday jamiyatda ilg'or fikrlar ilgari surilgan maqola va asarlarni nashr qilish oson emasdi.

[5] Saidov Z. "Behbudiyning "Padarkush" asari: Tahlil va sharh",Filologiya fanlari, 2015, 34-bet

[6] Abdurashidov Z**.** *Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy*. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156-bet.

Shu sababdan muallif kitob jildida “Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi” deb yozib nashr qilishga erishgan.

Keltirilgan fikrlarda mustamlaka davridagi Turkiston jamiyatining ijtimoiy-siyosiy holati va ma’rifiy cheklovlari yoritiladi. Nikolay Kuropatkinning kundaligida keltirilgan mulohazalar mahalliy aholini uzoq yillar davomida taraqqiyot, zamonaviy maktablar va rus jamiyati bilan aloqalardan cheklab qo‘yilganini ko‘rsatadi. Bu holat jamiyatda turg‘unlik, qaramlik va qat’iy nazorat tizimi hukm surganini anglatadi. Natijada ilmiy va ma’rifiy fikrlarning erkin rivojlanishi ham keskin cheklangan.

Shunday sharoitda ilg‘or g‘oyalarni ommaga yetkazish murakkab jarayon bo‘lgan. Senzura va nazorat kuchli bo‘lgani sababli mualliflar o‘z asarlarini nashr ettirishda turli yo‘llardan foydalanganlar. Ayrim hollarda asarlar rasmiy bayramlar yoki tarixiy voqealarga bag‘ishlangan deb ko‘rsatilib, shu orqali nashr ruxsatini olishga erishilgan. Bu esa o‘sha davrda ma’rifatparvar fikrlarni yashirin va ehtiyotkor usullar bilan tarqatish zarurligini ko‘rsatadi.

Mustaqillikdan so‘ng Jadidlar merosini tiklash jarayoniga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, 2016-yildan keyingi davrda davlat siyosatida Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan jadid ma’rifatparvarlarining tarixiy o‘rni qayta ko‘rib chiqilib, ularga nisbatan qo‘yilgan nohaq ayblovlar bekor qilindi.

Bu jarayon natijasida jadidlarning ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganish, ularning nomini abadiylashtirish hamda xalq xotirasida munosib o‘rin berish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, ularning faoliyati milliy tarix va ma’naviyatning ajralmas qismi sifatida e’tirof etila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi,noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorida ta’kidlanganidek, “Vatanimiz tarixida g‘oyat murakkab va sinovli davr bo‘lgan XX asr boshida

maydonga chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta’lim va tarbiya, adabiyot va san’at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg‘or taraqqiyot yutuqlarini o‘zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo‘lida o‘z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir”[7]. Mustaqillikdan so‘ng Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy va ma’rifiy merosini o‘rganish hamda uni keng targ‘ib qilish bo‘yicha bir qator tadbirlar va amaliy ishlar amalga oshirildi. Uning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ilmiy konferensiyalar, ma’naviy-ma’rifiy kechalar hamda xotira tadbirlari tashkil etildi.

Shuningdek, Behbudiy nomini abadiylashtirish maqsadida uning asarlarini qayta nashr etish, maktab va ta’lim muassasalarida ijodini o‘rganish, hamda yoshlar o‘rtasida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Uning vatan va ilm haqidagi qarashlari bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida ham muhim ma’naviy manba sifatida qo‘llanib kelmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati Turkiston jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Uning ilm va ma’rifatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘rishi, xalqni savodxonlikka, zamonaviy ta’limga hamda milliy uyg‘onishga chorlagan qarashlari o‘z davri uchun nihoyatda ilg‘or g‘oyalar bo‘lgan.

Behbudiyning pedagogik, publitsistik va adabiy merosi orqali u jaholat va qoloqlikka qarshi kurash olib borgan, teatr, matbuot va ta’lim kabi vositalar orqali jamiyat ongini yuksaltirishga intilgan. Shu bilan birga, uning vatanparvarlik g‘oyalari milliy o‘zlikni anglash va mustaqillik ruhini shakllantirishga xizmat qilgan.

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida: Qaror. – Toshkent, 2025. – 3-yanvar.

Tarixiy sharoit qanchalik murakkab bo‘lmasin, uning ilm-ma’rifatga asoslangan qarashlari keyingi avlodlar uchun ham ma’naviy asos bo‘lib qoldi. Mustaqillik davrida esa Behbudiy merosiga bo‘lgan e’tibor yanada kuchayib, uning g‘oyalari milliy ta’lim va ma’naviyat tizimida muhim o‘rin egalladi.

Umuman olganda, Behbudiy merosi bugungi kunda ham jamiyatni ilmli, ongli va taraqqiy etgan avlod sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. Alimova, A. Rashidova. *Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri*. – Toshkent: “Akademiya nashriyoti”, 1999. – 7-bet.
2. Toshpo‘latov, S. (2025). *Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning Turkiston jadidchiligida tutgan o‘rni*. Modern Science and Research, 2(1), 464–466.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy Madg‘oziyevO‘.filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori. –Toshkent: “Zabarjad media”, 2025. 6-bet
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy Abdurashidov Z. –Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2022.– 22-bet
5. Saidov Z. Behbudiyning “Padarkush” asari: Tahlil va sharh,“Filologiya fanlari”, 2015, 34-bet
6. Abdurashidov Z. *Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy*. – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2022. – 156-bet.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida*: Qaror. – Toshkent, 2025. – 3-yanvar.